

MUHANDIS O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Rahmatova Barnogul Karimjonovna

Buxoro muhandislik texnologiya instituti erkin tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004249>

Shiddat bilan rivojlanayotgan bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yetakchi o'rin egallagan kuchli raqobatga chidamli bo'lish har bir soha vakilidan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni uzluksiz ravishda rivojlantirib borishni taqozo qilmoqda. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrative bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini ko'zda tutadi. Shu bilan birgalikda, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini hamisha boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni ilg'ay olishni, yangi ma'lumotlarni qidirib topish, ularni qayta takomillashtirish va o'z ish faoliyatida qo'llay bilishni talab qiladi. Ta'kidlash joizki, "mutaxassis modeli" tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan har xil talqin etiladi. Aksariyat olimlar mutaxassis modeli deganda, ma'lum bir ixtisoslik bo'yicha mutaxassisning birlashtirilgan obrazi hisoblangan, o'rganiladigan obyektning asosiy tavsifini aks ettiruvchi va bayon etuvchi o'xshashlikni nazarda tutishadi. Ushbu tushunchaga N.M.Boritko tomonidan birmuncha o'zgacha mazmun kiritiladi. Mutaxassis modeli–bu oliy ta'lim muassasasida mutaxassislar tayyorlash jarayonini tartibga soluvchi o'quv rejalari, dasturlar va boshqa hujjatlarning aks ettirilishidir. Ya'ni, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi uslubi eng umumiy ko'rinishi o'zida ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-boshqaruv, axloqiy bilimlarning, mehnat faoliyati uchun lozim bo'lgan jihatlar, ko'nikmalarning hajmi va tuzilmasining tizimli ifodalanishini ko'rsatadi. Agar ushbu qoida qabul qilinsa, istalgan mutaxassis modeli allaqachon yaratilgan, hozir gap faqat uni boyitish haqida bormoqda, deb aytish mumkin bo'lardi. Ammo, bu o'rinda nima boyitilishga muhtoj va muntazam ravishda o'zgarishi va yangilanish jarayonida hosil bo'ladigan talabalarning mavjud mutaxassis modelidagi o'rni qanday bo'ladi, degan o'rinli savol paydo bo'ladi. N.F.Talizinaning keyingi tadqiqotlari ushbu gipotezaga birmuncha aniqlik kiritadi. Unga asosan modelni tuzishda quyidagilar ko'zda tutiladi: – mutaxassisning funktsional shakllanganligi; – uning kasb-hunar ixtisosligi kengligi; – professiografik tavsiflar; – yaqin va yiroq istiqbolga ushbu faoliyatga berilgan ekspert baholarni va bashoratlar; – o'quv fanlarning hajmi va nisbatini e'tiborga olgan holda ularning tuzilmalari. Bundan ko'rinadiki, ushbu ikki xil yondashish qorishiq qo'llanadi. Mavjud o'quv-tarbiya majmui bo'lgan modelga amaliyot ehtiyojlari va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tuzatish kiritiladi va takomillashtiriladi.

N.A.Muslimov, eng afzal o'quv rejasi buyurtmachi sifatida korxonalarning mutaxassisga qo'yiladigan talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak bo'lgan talab modeli asosidagina tuzilishi mumkin, deb hisoblaydi. O'zgacha nuqtai nazarni yoqlovchilar ham mavjud. Ular mutaxassisning modeli tushunchasiga mutaxassisning bilimi, malaka va boshqa jihatlarini ham kiritishadi. Bizningcha, mutaxassis tayyorlash modeli – bu faqat o'quv rejasi, dasturi hamda boshqa hujjatlarni ko'zda tutuvchi uzviy kontseptsiya emas, chunki u bo'lajak o'qituvchi faoliyatini o'rganishni nazarda tutmaydi, aksincha bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining asosini tashkil qiluvchi sifatlarni ko'rsatib berishga xizmat qilishi darkor. Shu bois mutaxassis tayyorlash modeli asosiga uning faoliyati modeli qo'yilsa, fikrimizcha, eng afzal model loyihalashtiriladi. Unga qo'yiladigan bugungi hamda kelajakdagi talablar, bo'lg'usi

texnologiya fani o'qituvchilari tayyorlashdagi asosiy nuqsonlarning oldini olish muammosi ana shu modelda o'z aksini topadi. Mutaxassis modeli vaziyatni bir butun anglash, oliy ta'lim muassasasi doirasidan tashqariga chiqish, o'rganilayotgan mutaxassislar bizning nazarimizda texnologiya fani o'qituvchilari faoliyati sohasidagi o'zgarishlarni oldindan aytish va bu o'zgarishlarni mutaxassislar tayyorlash mobaynida hisobga olish zarurligini o'z ichiga olishi darkor. Biz model tuzilmasini qabul qilib olish jarayonida tahlil va tajriba sinovga asoslangan tuzilmani model uchun ongli ravishda ishlab chiqamiz. Bu alohida mohiyat kasb etadi.

Mutaxassis pedagog faoliyati modelini yaratish o'z navbatida murakkab va ko'p qirrali vazifa bo'lib, uni hal qilish bosqichlarini R.S.Nemov quyidagicha ajratib ko'rsatadi: – mutaxassis modelining asosiy parametrlarini dastlab farazlar tarzida, keyin tadqiqot darajasida ajratib ko'rsatish; – modelni loyihalash uchun uning ko'rsatkichlarini tanlash, konstruksiyalash, standartlashtirish; – mutaxassis modelini yaratish uchun metodik asoslarni ishlab chiqish.

So'nggi yillarda bir qator mahalliy olimlarimiz tomonidan ham u yoki bu pedagogik jarayonni modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, N.Shodiev talabalarni kasbga yo'naltirish ishlariga tayyorlash modelini, N.Sayidahmedov esa bo'lajak o'qituvchilarni yoshlarning ijtimoiy foydali, samarali mehnatiga rahbarlik qilishga tayyorlash modelini ishlab chiqdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, N.Sayidahmedovning tadqiqotida o'qituvchi faoliyati modeli sxemasi nafaqat matn tarzida, balki umumiy ko'rinishdagi tuzulma tarzida ham keltiriladiki, bu istalgan pedagogik faoliyatni modellashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. M.Ochilov va T.To'laganovlar ham bo'lajak o'qituvchi, mutaxassisning kasb tayyorgarligi modeliga birmuncha o'ziga xos yangiliklar kiritishadi.

Yuqoridagi mutaxassis modelini ishlab chiqish bilan bog'liq turlicha qarashlar tahlilidan kelib chiqib, biz texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeliga quyidagi fikrlarni asos qilib oldik:

1. Hayotiy jarayonlar va hodisalarni ideal tizimli-tarkibiy namoyon etishga da'vo qiluvchi har qanday kontseptual modelda ma'lum darajadagi shartlilikka yo'l berish va ma'lum "yaxlitlashtirish" va, ayniqsa, voqelikni abstraktlashtirish mavjud bo'ladi. Obyektning murakkabligini va ko'p qirraligini inobatga olgan holda faoliyat jarayonlarini modellashtirish, shubhasiz, tizimning eng asosiy, fundamental darajalarini tanlash printsipligiga ko'ra yuzaga keladi. Shu bois biz umumiy va kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashish modellari tuzilishini tanlashda uning o'zagi sifatida shaxsni tanladik. Qolaversa, u ijtimoiy jarayon va faoliyat harakatining ham subyekti sanaladi.
2. Hodisa va shaxs tushunchalarning o'ziga xosligi va ichki immunitetligini anglagan holda ong va voqelik birligi printsipl ustuvor prinsip sanaladi. Shaxs faoliyati inson fazilatlarining birlashtirilgan ifodasidir, chunki shaxsning ijtimoiy-madaniy olamda harakat qilishining o'zaro bog'liq jihatlarini ifodalovchi ong va faoliyat fazilatlarini ko'rib chiqiladi.
3. Biz talaba kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashishining integrativ modelini tanladik. Tasvirlanayotgan obyektning yaxlitlik shartiga rioya qilingan taqdirda model doirasidagi tushunchalarni va bu qoidalarni belgilovchi umumiy faoliyat sohasidan kasbiy-pedagogik faoliyatga moslashish sohasiga o'tkazish amalga oshiriladi. Shu boisdan talaba ongi va faoliyatining aniq sifatlari bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro davom ettiruvchi shaklida namoyon bo'ladi.

4. Ushbu modelni tuzishdan maqsad, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi faoliyat sohalarining umulashtirilgan tuzilmasini qismlarga ajratish sanaladi, ushbu sxema vositasida tadqiqotning faoliyatga yo'naltirilganligi ochib beriladi.

5. Shu munosabat bilan modelni tuzish mantiqi ta'limni gumanitarlashtirish, madaniy va ma'naviy yaratuvchilik faoliyatining shart-sharoitlarini shakllantirish tamoyillariga amal qilish mantiqiga mos keladi. Ushbu tamoyillar ta'lim mazmunini loyihalashning asosi sifatida taqdim etilgan hamda ong va faoliyat yaxlitligi kontseptual modeliga kiritilgan.

6. Agar taklif etilayotgan model mohiyatning ideallashtirilgan abstrakt ifodasi bo'lishdan ozod bo'lib, "ishlay" boshlasa, pedagogik kasbiy faoliyat jarayonida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi ham uning butun yaxlitligida aks ettirishning muntazam jarayoni, ushbu "ish"ning haqqoniy mexanizmi bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, biz nazariy model ko'rinishida talabaning kasbiy kompetentligining takomillashishini turli darajalarda mantiqiy o'zaro bog'liqligini tahlilab chiqdik. Oliy pedagogik ta'lim tizimi muayyan o'qituvchi ixtisosligidan qat'iy nazar, model talabalarda takomillashish jarayonining umumiy dialektik obrazini namoyish qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Mazkur jarayon ularning ongi hamda faoliyatining o'ziga xosligini ko'rsatib beradi.

References:

1. Muslimov N.A., Usmonboeva, M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari . – Toshkent, 2015. –120 bet
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasbta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompeten
3. tligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya.–T.:“Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
4. BepalkoV.P. “Pedagogika i progressivnye tehnologii.” – M.: Pedagogika, 1989. 168 s.
5. Tolipov O'. “Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari”. – Toshkent: “Fan”, 2004. – 361 b.